

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligining 2024 yil I yarim yillik
HISOBOTI**

№	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot
I. “O‘ZATOM” AGENTLIGINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORLARIGA MUVOFIQ VAZIFALARI			
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish			
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” nomli ma‘ruzalari doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil yanvar - iyun	Bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” nomli ma‘ruzalari doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat dasturlari va strategiyalarni amalga oshirish			
2	2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston-2030” strategiyasida keltirilgan vazifalar va topshiriqlarni amalga oshirish doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil yanvar - iyun	Bajarildi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida keltirilgan vazifalar va topshiriqlarni amalga oshirish doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishliligi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan,

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish" "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish yuzasidan "O'zatom" agentligiga Dastur doirasida 2024-yil bahor mavsumi uchun 200ta daraxtlar MTYAU MMFI Toshkent shahri filiali hududida Mirzo Ulug'bek tumani, Ulug'bek shaharchasi, Huroson ko'chasi 1-uyga ekildi. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan kunlik (haftalik, oylik) ma'lumotlarni muntazam Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarish vazirligiga hamda Energetika vazirligiga taqdim qilinib "Yashil makon" umummilliy loyihasi platforamasiga joylandi. (2024-yil 19-aprel 01-08-248-sonli xat)</p>
<p>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi "2019 – 2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4165-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</p>			
3	<p>"Rosatom" davlat korporatsiyasi bilan birgalikda 2024-yil uchun atom energiyasining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi bo'yicha kommunikatsiya rejasini ishlab chiqish</p>	<p>2024-yil yanvar - iyun</p>	<p>Bajarildi.</p> <p>"O'zatom" agentligi va "Rosatom" DK bilan birgalikda aprel oyida kommunikatsiya rejasini ishlab chiqildi.</p> <p>Kommunikatsiya rejasi doirasida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 2024-yil 1-7 mart kunlari Sochi shahriga Butunjahon yoshlar festivaliga "O'zatom" agentligi hodimlarining ishtiroki hamda

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining press-turi tashkil etildi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - 2024-yil 25-26 mart kunlari Sochi shahriga ATOMEXPO ko'rgazmasida O'zbekiston ommaviy axborot vositalariga press-tur tashkil etildi; - O'zbekiston mustaqil Internet nashri "O'zbekiston yangiliklari"(nuz.uz)ning bosh muharriri o'rinbosari ishtirokida suzuvchi atom issiqlik elektr stantsiyasiga press-tur tashkil etildi; - 2024-yil 22-24 aprel kunlari Innoprom. Markaziy Osiyo xalqaro sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tdi; - 2024-yil 14-16 may kunlari O'zbekiston energetika forumi bo'lib o'tdi; - Talabalar va maktab o'quvchilari uchun ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi; - ATAM bo'ylab ekskursiyalarini tashkil qilish, ATAM telegram kanalida onlayn viktorinalar tashkil qilindi; - Xalqaro aqlli ta'til dasturi doirasida atom energiyasi soha vakillarining 12 yoshdan 16 yoshgacha bolalari o'rtasida tanlov o'tkazildi; - "O'zatom" agentligi va "AES qurilishi direksiyasi" DUK xodimlariga Oliver Stounning "Atom" filmi namoyishi tashkil etildi.

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>Jumladan, Ekspert ma'ruzachilar hamjamiyatini yaratish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • MMFI Milliy yadroviy tadqiqot universitetining yuqori kurs talabalari, shuningdek, energetika sohasidagi yosh mutaxassislar orasidan nomzodlarni tanlash; • ilmiy ommabop kontent yaratish va jurnalistlar bilan muloqot qilish bo'yicha bir qator treninglar o'tkazish; <p>Yangilik materiallarini, press-relizlarni tayyorlash, intervyularni tashkillashtirish.</p>
4	<p>AES va yadro infratuzilmasi uchun xodimlarni tayyorlash dasturlarini, shu jumladan xorijiy davlatlarda mutaxassislar malakasini oshirish dasturlariga muvofiq xodimlarni tayyorlash hamda malaka oshirish jarayonini tashkil etish.</p>	<p>2024-yil yanvar - iyun</p>	<p>Bajarildi.</p> <p>“O‘zatom” agentligi va “AES qurilishi Direksiyasi” DUKning 12 nafar xodimlari malakasini oshirish maqsadida Bangladesh Respublikasida qurilayotgan “Ruppur” AESining qurilish maydonchasiga mehnat safariga yuborilgan. Hozirgi kunda xodimlarning 2 nafari mehnat fa'oliyatini davom ettirmoqda hamda qolgan 10 nafari “O‘zatom” agentligi va “AES qurilishi Direksiyasi” DUKda mehnat fa'oliyatini davom ettirmoqda.</p> <p>“Atomstroyeksport” aksiyadorlik jamiyati bilan Misr va Vengriyada qurilayotgan AESlarga malaka oshirish uchun mutaxassislar yuborish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>“O‘zatom” agentligi va “AES qurilishi Direksiyasi” DUK mutaxassislari XAEA tomonidan o‘tkazilgan quyidagi o‘quv seminarlarida qatnashdilar:</p> <p>2024-yil 26-fevral-1-mart kunlari Idaho Falls (Bonneville okrugi, Idaho, AQSh) shahrida bo‘lib o‘tgan “Atom energiyasini ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va iqtisodini yaxshilashda texnologik innovatsiyalarning roli mavzusida Direktor o‘rinbosari F. Tashmetov ishtirok etidi.</p> <p>2024-yilning 2-16-mart kunlari Lyanyungan shahrida (Xitoy Xalq Respublikasi) bo‘lib o‘tadigan “Atom elektr stansiyalarini qurish va foydalanishga tayyorligi” bo‘yicha o‘quv kursida “O‘zatom” agentligi bosh mutaxassisi X. Abdumalikov va “AES qurilishi direksiyasi” DUK bosh mutaxassislari A. Burhanov, F. Dilmuratov va yetakchi mutaxassisi J. Normatovlar ishtirok ishtirok etidi.</p> <p>2024-yil 12-aprel kuni “Yadroviy infratuzilma bo'yicha MDH tayanch tashkiloti tomonidan tashkil etilgan atom energiyasidan foydalanish, xalqaro yadro konventsiyalari talablari, me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish to'g'risidagi keng qamrovli qonunni shakllantirish to'g'risida” onlayn tarzida bo‘lib o‘tgan seminarda “O‘zatom” agentligi bosh mutaxassisi I. Gabbarova ishtirok etdi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>2024-yilning 14-16-aprel kunlari FIRST dasturi doirasida o'tkazilgan seminarida "AES qurilishi direksiyasi" DUK bo'lim boshlig'i Xidirnazarova A.Y., bosh mutaxassislar Mirzahamdamov O.M., Abduvoxitov X.M., Dilmuratov F.D. va boshqalar ishtirok etdilar.</p> <p>2024-yil 20-24-may kunlari Anqara (Turkiya energetika, yadro va mineral tadqiqotlar agentligi, Turkiya Respublikasi) shahrida bo'lib o'tadigan "Dekarbonizatsiya harakatlarida elektr tarmoqlarining roli bo'yicha mintaqaviy seminarida Obyektlarni qurish loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi X. Abdumalikov ishtirok etdi.</p> <p>2024-yil 6-10-may kunlari Jeju (Jeju xalqaro konferensiya markazi, Jeju oroli, Koreya Respublikasi) shahrida bo'lib o'tadigan "Kichik modulli reaktorlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish va barqaror joylashtirish bo'yicha 22-INPRO muloqot forumida Atom energetikasi, yadro texnologiyalari, ilm-fan, kadrlar tayyorlash va innovatsiyalar boshqarmasi bosh mutaxassisi Sh. Umarov ishtirok etdi.</p> <p>2024-йил 16-17 may kuni Qirg'iziston Respublikasining Bishkek shahrida bo'lib o'tgan "NEPIO, atom energetikasi dasturi va yadroviy infratuzilmani shakllantirish"</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>mavzusidagi seminarida “AES direksiyasi” DUK bo‘lim boshlig‘i ishtirok etdi.</p> <p>Mirzo Ulug'bek tumani Ulug‘bek shaharchasida (Toshkent shahri) MIFI filialining o‘quv binosida joriy yilning 3-7-iyun kunlari tashkil etilgan XAEAning INPRO maktabining yadro energetikasini barqaror rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish bo‘yicha mintaqaviy sessiyasida 5 nafar “AES direksiyasi” DUK xodimlari ishtirok etishdi.</p> <p>2024-yil 11-13-iyun kunlari Seul (Koreya Respublikasi) shahrida bo‘lib o‘tadigan, Koreya Respublikasi va Butunjahon yadroviy xavfsizlik institutining (BYXI) “Kichik modulli reaktor texnologiyasidan mas’uliyatli foydalanish uchun asosiy infratuzilma bo‘yicha Janubiy, Markaziy va Sharqiy Osiyo mintaqaviy konferensiyasi” tadbirlarida Atom energetikasi, yadro texnologiyalari, ilm-fan, kadrlar tayyorlash va innovatsiyalar boshqarmasi bosh mutaxassisi Sh. Umarov ishtirok etdi.</p>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4492-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar			
5	“MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialini Rossiyaning Ta’lim va fan sohasida nazorat bo‘yicha federal	2024-yil yanvar - iyun	Bajarildi. Joriy yilning 15-may kuni “MMFI” Milliy tadqiqot yadro universiteti” Toshkent

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
	xizmati (Rosobrnadzor) tomonidan akkreditatsiyaga tayyorgarlik qilish.		shahridagi filialining barcha bakalavr yo'nalishlari Rossiyaning Ta'lim va fan sohasida nazorat bo'yicha federal xizmati (Rosobrnadzor) tomonidan akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkazildi.
6	“O‘zatom” agentligi tayanch oliy ta'lim muassasalari konsorsiumi ta'lim va ilmiy muassasalari moddiy-texnika va o'quv-laboratoriya bazasini yaratish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	Doimiy ravishda	<p>Bajarildi.</p> <p>“O‘zatom” agentligi tomonidan MMFI MTYAU Toshkent shahridagi filiali uchun 2-3-4 bosqich talabalari uchun 13 ta (“Kimyo”, “Mexanika”, “Molekulyar fizika va termodinamika”, “Elektr va magnitizm”, “To‘lqinlar va optika”, “Atom fizikasi”, “Avtomatika”, “Issiqlik fizikasi”, “Elektroenergetika”, “Virtual reallik”, “Atom elektr stansiyalarida fizik jarayonlarni modellashtirish”, “Kuch fizikasi”, “Elektrotexnika”) eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va jihozlari xarid qilindi.</p>
7	“MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialiga 2024-2025-o'quv yili uchun Nizom loyihasini ishlab chiqish va Vazilar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil iyun	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>Nizom loyihasini Vazilar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi direktori tomonidan tasdiqlanib 2024/2025-o'quv yili uchun Nizom loyihasi Vazilar Mahkamasiga kelishish uchun kiritildi.</p>
8	“MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialiga 2024-2025-o'quv yili uchun qabul jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil iyun	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>Nizom loyihasi Vazilar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, qabul jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish boshlanadi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
9	Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining filiali faoliyatini rivojlantirish.	Doimiy ravishda	<p>Bajarildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 14-iyuldagi PQ-319-son qarorida Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining filiali va "Navoiyuran" DK kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilish belgilangan. Ushbu soha bo'yicha kadrlar tayyorlash maqsadida filialda yangi ta'lim yo'nalishi ochish bo'yicha "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti bosh muassasasi bilan muzokaralar o'tkazib kelinmoqda. Undan tashqari filialda magistratura bosqichini ochish, hamda yadro tibbiyoti sohasida ishlash uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, qator onkologik, kardiologik, nevrologik va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni tashxislash va davolashda yadro texnologiyalaridan foydalanish maqsadida yangi "Yadroviy tibbiyot" yo'nalishi ochish bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda.</p>
10	"O'zatom" agentligi va "AES qurilishi direksiyasi" DUKning bir guruh mutaxassislarini AES qurilayotgan davlatlarda amaliy mashg'ulotlardan o'tish uchun yuborish, tashkiliy masalalarni hal qilish, profilaktik emlashni tashkil etish, ish vizasini olish,	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarildi.</p> <p>2024-yil 2-16 mart kunlari "O'zatom" agentligining 1 nafar va "AES qurilishi direksiyasi" DUKning 3 nafar mutaxassisleri Xitoy Xalq Respublikasining (Lyanyungan</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot
	kelishilgan marshrut bo‘ylab topshiriq ish rejasini ishlab chiqish va tegishli hujjatlarni tayyorlash.		shahar okrugi, Jiangsu viloyati), Tyanvan atom elektr stansiyasining qurilayotgan 7-8 bloklarga texnik tashrif buyurishdi. “O‘zatom” agentligi va “AES qurilishi Direksiyasi” DUKning xodimlari malakasini oshirish maqsadida Bangladesh Respublikasida qurilayotgan “Ruppur” AESining qurilish maydonchasiga mehnat safariga yuborilgan 2 nafari mutaxassilari muvaffaqiyatli malaka oshirmoqdalar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi “2022 - 2030-yillarda “Navoiyuran” davlat korxonasi uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-319-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar			
11	Rossiya Federatsiyasining “MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetida atom energetikasi va yadro texnologiyalari sohasida ta’lim olib qaytgan yoshlarni “Navoiyuran” davlat korxonasi ishga joylashtirish.	2024-yil yanvar - iyun	Bajarilmoqda. Joriy yilning may oyida Rossiya Federatsiyasining “MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetida bitiruvchi talabalarning umumiy ro‘yxati shakllantirildi va “Navoiyuran” davlat korxonasi taqdim qilindi. Shuningdek, avgust oyida bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishlari himoyasidan so‘ng, talabalar ishga taqsimoti ko‘rib chiqilishi rejalashtirilgan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 - 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar			
12	Iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalar asosida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni	2024-yil har oyning 25-sanasi	Bajarildi. Iqtisodiyot tarmoqlar tashkilotlari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalar

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
	o'zlashtirish doirasida 2024 yil uchun 8 ta loyihani kelishishga tayyorlash.		asosida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish loyihalarini amalga oshirishning 2023-2026 yillarga mo'ljallangan Prognoz ko'rsatkichlari doirasida "O'zatom" agentligining 2024-yil uchun 8 ta loyihalari Innovatsion rivojlanish agentligi bilan kelishildi. Shuningdek, har oyni 25 sanasigacha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda Adliya vazirligiga ushbu loyihalar ijrosi yuzasidan oylik hisobot o'rnatilgan tartibda kiritib kelinmoqda.
II. "O'ZATOM" AGENTLIGINING USTUVOR VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR			
1. Atom energetikasi sohasida normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish			
13	Tasdiqlangan "O'zatom" agentligida 2024-yilda normativ hujjatlarni ishlab chiqish dasturi" doirasida o'rnatilgan tartibda normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarildi.</p> <p>"O'zatom" agentligi va "AES qurilishi Direksiyasi" DUKda 2024-yilda normativ hujjatlarni ishlab chiqish dasturi" doirasida 7-ta normativ hujjatlar ishlab chiqildi, qabul qilindi va amalga kiritildi:</p> <p>UzAtom 10-024:2024 "O'zatom" agentligi tarkibiy bo'linmalari va quyi tashkilotlari xodimlarining O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to'g'risida Nizom" tasdiqlangan;</p> <p>UzAtom 10-040:2024 "O'zatom" agentligi tarkibiy bo'linmalari va quyi tashkilotlari xodimlarining O'zbekiston Respublikasi</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>hududidan tashqari xizmat safarlari to'g'risida Nizom" tasdiqlangan;</p> <p>UzAtom Ts 11120-6.004:2024 "O'zatom" agentligining Kadrlar siyosati to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan;</p> <p>UzAtom Ts 11120-6.020:2024 O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi xodimlarini faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash asosida oylik rag'batlantiruvchi xususiyatga ega to'lovlarni hisoblash Tartibi" to'g'risida tasdiqlandi.</p> <p>Yuqoridiglardan tashqari, "O'zatom" agentligida 2024-yilda 6ta "Lavozim yo'riqnoma"lari qayta ko'rib chiqilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan.</p> <p>IH Y 09-09-44:2024 "AES direksiya DUK xarid qilayotgan tovarlarni qabul qilish nazorati tartibi yo'riqnomasi" tasdiqlangan;</p> <p>IH N 09-07-53:2024 "Sifat menejment tizimida rejalashtirish Nizom" tasdiqlandi;</p> <p>IH T 09-10-01-121:2024 "Xodimlarni o'qitish, tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tartibi" tasdiqlandi.</p>
14	<p>"ATOM TEXNIKASI" MTK-322 Standartlashtirish bo'yicha davlatlararo texnik qo'mitasining yig'ilishlarida va davlat standartlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish.</p>	<p>2024-yil yanvar - iyun (qo'mitaning ish rejasiga muvofiq)</p>	<p>Bajarildi.</p> <p>Qo'mita yig'ilishlarida har chorkada "O'zatom" agentligidan B.Xikmatullaev va I.Gabbarova, "AES qurilishi Direksiyasi" DUKdan A. Xidirnazarova ishtirok etib kelishmoqda.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
15	Normativ hujjatlarning fondini shakllantirish va yuritish (FOCT, O'z DSt, hujjatlari va boshqalar), XAEA normalari va qoidalarining elektron reestrini yaratish.	2024-yil yanvar - iyun	Bajarildi. Standartlashtirish va normativ hujjatlarni ishlab chiqish boshqarmasi tomonidan elektron reestr yaratildi.
2. AES qurilishi loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar			
16	AESning atrof-muhitga ta'sirini baholash hisoboti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududlarida jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish dasturiga muvofiq ishlarini tashkil etish.	Kelishilgan holda	Bajarildi. O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Forish tumanida qurilishi va ekspluatatsiya qilinishi rejalashtirilgan atom elektr stansiyasining atrof muhitga ta'sirini baholash loyihasini (1-bosqich, AES joylashtirish uchun maydon tanlash) jamoatchilik eshituvini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Yuqorida qayd etilgan atrof-muhitga ta'sirini baholash (OVOS)ning 5-bob "Joylashgan hududdagi atrof-muhitga AES ta'siri prognozi" va 10-bob "Transchegaraviy ta'sir"ni ishlab chiquvchi bilan atrof-muhitni hisobga olgan holda prognozni hisoblash usullarini aniqlashtirish nuqtayi nazaridan ta'sir etuvchi omillar muhokama qilindi. Ishlab chiqilgan materiallar bo'yicha sharhlar atrof-muhitga ta'sirini baholash materiallarini ishlab chiquvchiga yuborildi.
3. Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bilan hamkorlik va o'zaro aloqalar			
17	2024-2025-yillarda XAEA tomonidan tasdiqlangan texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o'tkazish.	Belgilangan jadvalga muvofiq	Bajarilmoqda.

№	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot
			Texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o‘tkazish belgilangan jadvalga muvofiq 2-yarim yillikda amalga oshiriladi.
18	Respublikaning milliy yadroviy infratuzilmasini rivojlanishini kompleks baholash bo‘yicha hisobotiga oid “Ish reja”larini (Integrated Work Plan/Action plan) ishlab chiqish va XAEA bilan birga kelishish.	2024-yil iyun	Bajarilmoqda. Respublikaning milliy yadroviy infratuzilmasini rivojlanishini kompleks baholash davra suxbati davomida XAEA yadro infratuzilmasini rivolantirish bo‘limi ekspertlari bilan hamkorlikda rejalashtirish hujjati – Integratsiyalashgan ish rejasini (IWP/Ap) birgalikda ishlab chiqish va imzolash kutilmoqda.
19	Respublikaning milliy yadroviy infratuzilmasini rivojlanishini kompleks baholash bo‘yicha hisobotiga oid ishlab chiqilgan “Ish reja” (Integrated Work Plan/Action plan)da quydagi belgilangan tadbirlarni o‘tkazish; 1. Yadro obyektlari uchun Egasi/Operator (Owner/Operator) tomonidan axborot xavfsizligi tizimini ishlab chiqish bo‘yicha seminar; 2. Qurilish nazorati bo‘yicha milliy seminar (texnik nazorat, loyiha qarorlari monitoringi, qurilish sifati va loyiha risklarini boshqarish); 3. Qurilish nazorati bo‘yicha mulkdor-operatorning ilmiy tashrifi; 4. Narx belgilash, nazorat qilish bo‘yicha ilmiy tashrif qurilish vaqtidagi xarajatlar va shartnoma munosabatlari; 5. Jamoatchilik muhokamasi va xabardorlik bo‘yicha seminar.	2024-yil yanvar – iyun (kelishilgan holda)	Bajarilmoqda. Texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o‘tkazish 2-yarim yillikda amalga oshiriladi.

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
20	Yaponiya atom sanoati assotsiatsiyasi (JAIF International Cooperation Center, JICC) Xalqaro hamkorlik markazi vakillari bilan Jizzax viloyatida, yadro xavfsizligi bo'yicha qo'shma o'quv seminarini tashkil etish va o'tkazish.	2024-yil yanvar - iyun	Bajarilmoqda. O'quv seminarini tashkil etish joriy yilning 2-yarim yilligiga qoldirildi.
21	“O‘zatom” agentligining O‘zbekiston energetika forumi, va “Energetika, energiya tejash, muqobil energiya manbalari – Power Uzbekistan 2024” 17-xalqaro ko‘rgazmasi ishida ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish (tadbir dasturi loyihagini tayyorlash, taklif etilganlar ro‘yxatini tuzish, muzokaralar o‘tkazish va tashkilotchi kompaniyasi bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal qilish.	2024-yil may	Bajarildi. 14-16 may kunlari “Energetika, energiya tejash, muqobil energiya manbalari – Power Uzbekistan 2024” 17-xalqaro ko‘rgazmasida tashkil qilingan “Muqobil energiya manbalari turlarini kengaytirish va ularning muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashuvini” va Vengrya mutaxassislari tomonidan tashkil etilgan “Energetika sohasida kadrlarni tayyorlash Vengrya tajribasi” mavzusida tinglovchi sifatida “O‘zatom” agentligi, “AES qurilishi Direksiyasi” DUK va Toshkent shahridagi “MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining filiali mutaxassislar va talabalari ishtirok etdi. Jumladan tadbir dasturiga muvofiq, marafon va zakovat o‘yinlarida “O‘zatom” agentligi, “AES qurilishi Direksiyasi” DUK va Toshkent shahridagi “MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining filiali mutaxassislar va talabalari ishtirok etdi.
4. Atom texnologiyalari axborot markazini rivojlantirish va atom energetikasini ommalashtirish			

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
22	“O‘zatom” agentligi Atom texnologiyalari axborot markazi (ATAM)da uchrashuvlarni tashkil qilish va o‘tkazish	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarildi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Joriy yilning 8-fevral kuni “Atom elektr stansiyasining sovutish tizimlari: bug‘lanish sovutish minoralari “quruq” sovutish minoralariga qarshi” mavzusida noodatiy tarzda munozara bo‘lib o‘tdi; - “Bitiruvchi bilan suhbat” rubrikasi doirasida MMFI Milliy tadqiqot yadro universiteti Toshkent filiali bitiruvchisi Nafosat Mashrapova bilan suhbat o‘tkazildi; - Atom energetikasi, yadro texnologiyalari, ilm-fan, kadrlar tayyorlash va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i Qosim Toxtaxunov hamda Repost.uz - onlayn yangiliklar portali bilan Atom energetikasi va yadro texnologiyalari to‘g‘risida intervyu bo‘lib o‘tdi; - MMFI Milliy tadqiqot yadro universiteti Toshkent filiali yadro tibbiyoti bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashni boshlashi to‘g‘risida Atom energetikasi, yadro texnologiyalari, ilm-fan, kadrlar tayyorlash va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i Qosim Toxtaxunov va O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining bosh radiologi, Toshkent shifokorlarni takomillashtirish instituti huzuridagi radiatsiya xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash markazi rahbari Damir Zaredinovlar bilan intervyu tashkil qilindi;

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<p>- Toshkent shahridagi "MMFI" Milliy tadqiqot yadro universiteti"da katta o'qituvchisi Vohidjon Qudratov bilan AESlar qanday ishlashi, atom energetikasi haqidagi afsona va haqiqatlar, uning ekologiyaga ta'siri, u nimaning hisobiga energiya yaratishi haqida Sigma Podkast kanalida suhbat tashkil qilindi;</p> <p>- AES iqtisod va ekologiyaga qanday ta'sir qiladi? AES O'zbekistonga nega kerak? Ekologiyaga ta'siri qanday? AES ning foydasi va zararlari kabi mavzularda Toshkent shahridagi "MMFI" Milliy tadqiqot yadro universiteti"da katta o'qituvchisi Toxtaxunov Qosim va iqtisod fanlari nomzodi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi Nodira Zikrillayeva bilan Qo'shtirnoq Podkast kanalida suhbat tashkil qilindi.</p>
23	<p>"O'zatom" agentligi Atom texnologiyalari axborot markazi (ATAM)da Aholining yadro fani va texnologiyalari sohasidagi ilmiy-texnik bilimlarini oshirish va atom energetikasini ommalashtirish.</p>	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarildi:</p> <p>Atom energetikasini ommalashtirish va talabalar, maktab o'quvchilarining ilmiy-texnik bilimlarini oshirish maqsadida ATAMda quyidagi tadbirlar o'tkazildi:</p> <p>Joriy yilning 8-fevral kuni "Atom elektr stansiyasining sovutish tizimlari: bug'lanish sovutish minoralari "quruq" sovutish minoralariga qarshi" mavzusida noodatiy tarzda munozara bo'lib o'tdi.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
24	Talabalar, maktab o'quvchilari va respublikamizning boshqa soha vakillari uchun Atom texnologiyalari axborot markazi bo'ylab ekskursiyalar, xalqaro ilmiy hamjamiyatning malakali mutaxassislari bilan birgalikda ilmiy-ommabop ma'ruzalar, interaktiv va mahorat darslari, tok-shoular tashkillashtirish.	Doimiy ravishda	<p>Bajarildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Joriy yilning 8-fevral kuni «Atom elektr stansiyasining sovutish tizimlari: bug'lanish sovutish minoralari "quruq" sovutish minoralariga qarshi» mavzusida noodatiy tarzda munozara bo'lib o'tdi; - "Bitiruvchi bilan suhbat" rubrikasi doirasida MMFI Milliy tadqiqot yadro universiteti Toshkent filiali bitiruvchisi Nafosat Mashrapova bilan suhbat o'tkazildi; <p>Bundan tashqari, Talabalar, maktab o'quvchilari va Respublikamizning boshqa soha vakillari uchun Atom texnologiyalari axborot markazi bo'ylab quyidagi ekskursiyalar amalga oshirildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - "American councils for International education" tashkilotining C5+O.N.E. dasturi qatnashchilari; - Toshkent shahar Cambridge xalqaro CIS maktabi o'quvchilari; - Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti filiali talabalari; - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabalari; - O'zbekiston Respublikasi akademiyasi umumqo'shin qo'mondonlik fakulteti talabalari - Toshkent shahar Shayxontohur tumani 180-sonli o'rta maktab o'quvchilari

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			<ul style="list-style-type: none"> - Toshkent shahridagi Amiti universiteti talabalari - Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 328-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari - Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-umumta'lim maktabi o'quvchilari
25	Yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va shu yo'nalish bo'yicha universitetlar bilan hamkorlik qilish hamda Talabalar, maktab o'quvchilari uchun Fan va atom festivali tashkil qilish.	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarilmoqda: “Rosatom” davlat korporatsiyasi bilan birgalikda 2024-yil uchun atom energiyasining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi bo'yicha kommunikatsiya rejasiga ko'ra Fan va atom festivali va Zakovat formulasi chempionatini o'tkazish 2024-yilning ikkinchi yarmida o'tkazish rejalashtirilmoqda</p>
26	Maktab o'quvchilari uchun Butunjahon fan kuniga bag'ishlangan Global Atomic Quiz 2024 loyihasini amalga oshirish.	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarilmoqda: “Rosatom” davlat korporatsiyasi bilan birgalikda 2024-yil uchun atom energiyasining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi bo'yicha kommunikatsiya rejasiga ko'ra Butunjahon fan kuniga bag'ishlangan Global Atomic Quiz 2024 loyihasini o'tkazish 2024-yilning ikkinchi yarmida o'tkazish rejalashtirilmoqda</p>
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish			
27	Agentlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan “O'zatom” agentligi tomonidan xodimlarning huquqiy	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarilmoqda. O'quv seminarlarni o'tkazish joriy yilning 2-yarmiga ko'chirilgan.</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
	madaniyatini oshirish uchun axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va o'quv seminarlarni o'tkazish.		
6. “O‘zatom” agentligi infratuzilmasini rivojlantirish.			
28	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik tizimini rivojlantirish doirasida korxonada xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash.	Doimiy ravishda	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish tizimi yaratilib, favqulodda vaziyatlar va yong'inlarni bartaraf etish bo'yicha yong'in xavfsizligi chizmasi ishlab chiqildi va tegishli joylar o'rnatildi hamda o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. “O‘zatom” agentligi binosining issiq suv tizimi quvurlari yangilandi.</p> <p>Yoz mavsumiga sovutish tizimlari qayta ko'rib chiqildi va kamchiliklar bartaraf etildi.</p>
7. Umumiy masalalar			
29	“O‘zatom” agentligining tarkibiy bo'linmalari va quyi tashkilotlar rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi” Nizom UzAtom Ts 11120-6.016:2022 asosida 2024-yil I choragi yakuni bilan faoliyat ko'rsatkichlarining amalda bajarilishi va 2024-yil II choragi uchun faoliyat samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash to'g'risida bayonoma tuzish.	2024-yil iyun	<p>Bajarildi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligiga “O‘zatom” agentligining 01-08-195, xati bilan Agentligining rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha 2024-yil I choragi yakuni bilan faoliyat ko'rsatkichlarining amalda bajarilishi va 2024-yil II choragi uchun faoliyat samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			to'g'risida 1-bayoni ilova ko'rinishida taqdim etilgan.
30	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan har juma kuni o'tkaziladigan siyosiy-ma'rifiy o'quv soatida ishtirok etish.	Har hafta	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan har haftaning juma kuni Respublika ichki va tashqi siyosiy hayotidagi dolzarb voqealarga bag'ishlangan siyosiy-ma'rifiy o'quv soatlarida qatnashadi. O'zbekistonning (YouTube videoxosting platformasida).</p>
8. Ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha yagona va uzluksiz "texnologik zanjir"ni amalga oshirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash			
31	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlar ijrosini "edo.ijro.uz" yagona elektron tizimi orqali nazorat qilib borish va ma'lumotlarni kiritish.	Doimiy	<p>Bajarildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlar ijrosini "me.ijro.uz" va "app.ijro.uz" yagona elektron tizimi orqali nazorat qilib borilmoqda va doimiy ravishda ma'lumotlar kiritilmoqda.</p> <p>2024-yilda "O'zatom" agentligiga 511ta kiruvchi yozishmalarni qabul qildi, shundan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Xavfsizlik Kengashi 8 ta, - Vazirlar Mahkamasining 41 ta ko'rsatmasi; <p>Respublika vazirliklari va idoralaridan 470 ta xat;</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot
			2024-yilda "O'zatom" agentligida 390ta chiquvchi xatlar ro'yxatga olingan.
32	O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari tegishliligi bo'yicha bajarilishining natijalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot berish.	Doimiy	Bajarildi. Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari tegishliligi bo'yicha bajarilishining natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga yuborildi.
33	Agentlikda jismoniy va yuridik shaxslarni yoki ularning vakillarini qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, har bir murojaatga to'liq javob xatlari berilishini nazorat qilish.	Doimiy	Bajarildi. 2024-yilda "O'zatom" agentligiga umumiy 8ta murojaatlar bo'lib shundan: 3ta yuridik shaxslar, 5ta jismoniy shaxslardan kelib tushgan, ular belgilangan tartibda ko'rib chiqilib javob xatlari yuborilgan. Hisobot davrida agentlikda jismoniy va yuridik shaxslarni yoki ularning vakillarini qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, har bir murojaatga to'liq javob xatlari berilishining nazorati bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi.
9. "O'zatom" agentligi mutaxassislarini kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish			
34	XAEA treninglarida ishtirokkanligi natijalari bo'yicha "O'zatom" agentligi va "AES qurilishi direksiyasi" DUK xodimlariga taqdimot qilish.	2024-yil yanvar - iyun	Bajarilmoqda. Texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o'tkazish belgilangan jadvalga

№	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro etilishi va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot
			muvoqif 2-yarim yillikda amalga oshirilishi sababli taqdimotlar 2-yarim yillikda amalga oshiriladi.
35	American Councils for International Education C5+ONE dasturi bo‘yich ingliz tili o‘quv darslariga qatnashish.	2024-yil yanvar - iyun	<p>Bajarilmoqda.</p> <p>American Councils for International Education C5+ONE dasturi bo‘yich ingliz tili o‘quv darslarida “O‘zatom” agentligi va “AES qurilishi direksiyasi” DUK mutaxassislari muntazam qatnashib kelmoqda.</p>